

Hujjat rus tilida tasdiqlangan

18.OCA. - son bilan ro'yxatga olingan

**“O‘zbekiston ipotekani qayta  
moliyalashtirish kompaniyasi” AJ  
Aksiyadorlarining navbatdan tashqari  
umumiy yig‘ilishi  
qarori bilan  
“TASDIQLANGAN”  
12-dekabr 2023-y.**

**“O‘zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi”  
Aksiyadorlik jamiyatining  
DIVIDEND SIYOSATI**

**Toshkent-2023 y.**

## MUNDARIJA

I. UMUMIY QOIDALAR .....	3
II. DIVIDEND SIYOSATINING MAQSADLARI, TAMOYILLARI VA ASOSIY QOIDALARI .....	3
III. DIVIDENDLAR MIQDORINI ANIQLASH VA HISOBLAB YOZISH TARTIBI .....	4
IV. DIVIDENDLARNI TO'LASH TARTIBI VA MUDDATLARI.....	5
V. E'LON QILINGAN DIVIDENDLAR TO'LOVI UCHUN JAVOBGARLIK .....	6
VI. MA'LUMOTNI OSHKOR QILISH TARTIBI .....	7
VII. YAKUNIY QOIDALAR .....	7

## **I. UMUMIY QOIDALAR**

1. O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish (keyingi matnda – "Jamiyat") aksiyadorlik jamiyatining ushbu Dividend siyosati (keyingi matnda - "Siyosat") "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga, Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha Komissiya yig'ilishining 31.12.2015 y. 9-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan boshqa qonuniy-normativ hujjatlarga, Jamiyat Ustaviga va Jamiyatning boshqa ichki hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

2. Ushbu Siyosat Jamiyatning dividend siyosatining maqsadi va tamoyillarini, Jamiyatning Kuzatuv kengashi tomonidan dividendlarni to'lash bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqish qoidalarini va yondashuvlarini, dividendlarni to'lash to'g'risida qaror qabul qilish tartibini, dividendlarni to'lash, shuningdek ma'lumotlarni oshkor qilish tartibini, shuningdek Dividend Siyosatiga rioya qilish uchun Jamiyatning ma'lumotlarini oshkor qilish va javobgarligini belgilaydi.

3. Jamiyatning Dividend siyosati aksiyalar qiymatini oshirish maqsadida Jamiyat foydasining taqsimlangan va kapitallashtirilgan qismlari o'rtasidagi nisbatlarni optimallashtirish yo'li bilan aksiyadorlar farovonligini oshirishga qaratilgan.

4. Ushbu Siyosat Kuzatuv kengashi a'zolari, Ijroiya organi, shuningdek dividendlarni hisoblash va to'lashda ishtirok etadigan Jamiyatning tarkibiy bo'linmalari rioya qilishlari uchun majburiydir.

## **II. DIVIDEND SIYOSATINING MAQSADLARI, TAMOYILLARI VA ASOSIY QOIDALARI**

5. Ushbu Siyosat Jamiyat dividendlarining miqdorini aniqlash mexanizmining shaffofligini va ularni to'lash tartibini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan.

6. Jamiyat kapitallashuvning o'sishini Jamiyat aksiyalaridan daromad olishda aksiyadorlarning mulkiy manfaatlarini qondirishning asosiy usuli deb biladi.

7. Jamiyat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-sonli Farmoniga muvofiq o'z ustav kapitalini 1200 milliard so'mgacha yetkazish sanasiga qadar aksiyadorlarga Jamiyat aksiyalari shaklida dividendlarni to'laydi.

8. Jamiyatning Dividend siyosati quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:

- dividend siyosatini amalga oshirishda ishtirok etuvchi tomonlarning majburiyatlari va javobgarligi, shu jumladan dividendlarni to'lash va miqdori to'g'risida qaror qabul qilish tartibi va shartlari to'g'risidagi ma'lumotlarni aniqlash va oshkor qilishni nazarda tutadigan shaffoflik tamoyili;

- o'z vaqtida to'lash prinsipi dividend to'lovlarini amalga oshirishda vaqt chegaralarini belgilashni nazarda tutadi;

- dividendlarni to'lash va miqdori to'g'risida qaror faqat Jamiyatning rivojlanish rejalari va Jamiyatning real moliyaviy ahvolidan kelib chiqqan holda investitsiya dasturlarini hisobga olib, ijobiy moliyaviy natijaga erishgan taqdirdagina qabul qilinishi mumkinligini nazarda tutadigan asoslanganlik tamoyili;

- adolatlilik prinsipi aksiyadorlarning dividendlarni to'lash, miqdori va to'lash tartibi to'g'risidagi qarorlar to'g'risida ma'lumot olishga teng huquqlarini ta'minlashni nazarda tutadi;

- ketma-ketlik tamoyili Dividend Siyosatining taomillari va tamoyillarini qat'iy ijro etishni nazarda tutadi;

- rivojlanish tamoyili korporativ boshqaruv taomillarini takomillashtirish va Jamiyatning strategik maqsadlaridagi o'zgarishlar munosabati bilan uning qoidalarini qayta ko'rib chiqish doirasida dividend siyosatini doimiy ravishda takomillashtirishni nazarda tutadi;

- barqarorlik tamoyili Jamiyatning dividend to'lovlari darajasi barqarorligini ta'minlashga intilishini nazarda tutadi.

9. E'lon qilingan dividendlarni to'lash Jamiyatning vazifasi hisoblanadi.

Dividendlarni to'lash bilan bog'liq xarajatlar (shu jumladan soliqlarni hisoblash va ushlab qolish, dividendlarni o'tkazish, pochta xarajatlari) boshqaruv organlarining qarori bilan dividend olgan aksiyadorga yuklanishi mumkin emas. Jamiyat O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq ushbu majburiyatni bajarmaganligi uchun o'z aksiyadorlari oldida javobgar bo'ladi.

10. Dividendlar quyidagi holatlarda hisoblab yozilmaydi va to'lanmaydi:

- joylashtirilmagan aksiyalar bo'yicha;
- Jamiyatning o'zi tomonidan xarid qilingan va/yoki sotib olingan aksiyalar;
- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan boshqa holatlarda.

11. "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunga muvofiq, Jamiyat quyidagi hollarda aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash va qaror qabul qilishga haqli emas:

- Jamiyat ta'sis etilganda butun ustav fondi (ustav kapitali) to'liq to'lanishiga qadar;
- agar dividendlarni to'lash vaqtida bankrotlik belgilari mavjud bo'lsa yoki bu belgilar Jamiyatda dividendlarni to'lash natijasida paydo bo'lsa;
- agar Jamiyatning sof aktivlari qiymati uning ustav kapitali (ustav kapitali) va zaxira fondi miqdoridan kam bo'lsa.

### **III. DIVIDENDLAR MIQDORINI ANIQLASH VA HISOBLAB YOZISH TARTIBI**

12. Dividend – bu aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanadigan Jamiyatning sof foydasining bir qismi.

13. Jamiyat moliyaviy yilning birinchi choragi, olti oyi, to'qqiz oyi va (yoki) moliyaviy yil natijalariga ko'ra joylashtirilgan aksiyalar bo'yicha tegishli davr tugaganidan keyin 3 (uch) oy ichida dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilish (e'lon berish) huquqiga ega, ushbu siyosatning II bo'limida ko'rsatilgan hollar bundan mustasno.

Dividendlar Jamiyat ixtiyorida qoladigan sof foyda hisobidan va (yoki) avvalgi yillarning taqsimlanmagan sof foyda hisobidan to'lanadi.

14. Dividendlarni to'lash, dividend miqdori, Jamiyat aksiyalari bo'yicha dividendlarni to'lash shakli va tartibi to'g'risidagi qaror Jamiyat Kuzatuv kengashining tavsiyasi asosida aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishida qabul qilinadi. Dividendlar miqdori Kuzatuv kengashi tomonidan tavsiya etilgan miqdordan katta bo'lishi mumkin emas. Aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi dividendlarni to'lamaslik to'g'risida qaror qabul qilishga haqlidir.

15. Aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining dividendlarni to'lash (e'lon qilish) to'g'risidagi qarorida quyidagilar belgilangan bo'lishi kerak:

- bir aksiyaga hisoblangan dividend miqdori;
- dividendlarni to'lash muddatlari, tartibi va davriyligi.

16. Aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishiga tavsiya etiladigan aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash miqdori quyidagi omillardan kelib chiqqan holda Kuzatuv kengashi tomonidan aniqlanadi:

- ishonchligi auditorlik xulosasi bilan tasdiqlangan moliyaviy hisobot ma'lumotlariga muvofiq sof foyda miqdori;
- keyingi davrlar uchun Jamiyatning biznes rejalari va strategiyasi;
- Jamiyat aylanma vositalari va majburiyatlarining joriy va istiqbolli holati;
- Jamiyatning tegishli davr oxiriga qarz yuklamasi.

17. Kuzatuv kengashi tomonidan Jamiyat aksiyadorlarining Umumiy yig'ilishiga tavsiya etiladigan dividendlar to'lovi Jamiyat tomonidan qarzlarni uchun qo'shimcha moliya mablag'larini yoki keyingi davrlar uchun tasdiqlangan bizne-reja bilan ko'zda tutilmagan boshqa jarajatlarni jalb qilishga olib kelmasligi kerak.

18. Tuzilgan martnomaga muvofiq Jamiyat dividendlarni Markaziy depozitariy va (yoki) investitsion vositachilar orqali to'lash huquqiga ega.

#### **IV. DIVIDENDLARNI TO'LASH TARTIBI VA MUDDATLARI**

19. Aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining qaroriga muvofiq Jamiyat dividendlarni pul mablag'lari yoki boshqa qonuniy to'lov vositalari yoxud Jamiyatning qimmatli qog'ozlari bilan to'laydi.

20. Dividendlarni to'lash muddati Jamiyat aksiyadorlarining Umumiy yig'ilishining qarori bilan belgilanadi, lekin aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi tomonidan dividendlar to'lash to'g'risidagi qaror qabul qilingan kundan boshlash 60 (oltmish) kundan kechiktirmagan holda amalga oshirilishi lozim.

21. Agar Jamiyatning qimmatli qog'ozlari egalari aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi tomonidan belgilangan muddatlarda hisoblangan dividendlarni ololmagan bo'lsa, Jamiyat bunday (talab qilinmagan) dividendlarni to'lashni davom ettiradi. Talab qilinmagan dividendlarni to'lash muddati Jamiyatning e'lon qilingan dividendlarni to'lash bo'yicha majburiyati tugagan kundan boshlab uch yildan oshmasligi kerak.

22. Aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi tomonidan belgilangan muddatlarda Jamiyatning aybi bilan dividendlar to'lanmagan (olinmagan) taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan asosiy stavka bo'yicha to'lanmagan (olinmagan) dividendlar uchun penya (jarima) undiriladi. To'lanmagan (olinmagan)

dividendlar bo'yicha hisoblangan foizlar miqdori to'lanmagan (olinmagan) dividendlar miqdorining 50 (ellik) foizidan oshib ketmasligi kerak.

23. O'z funksiyalari qatorida aksiyadorlar bilan ishlashni tashkil etish va olib borish bilan shug'ullanadigan Jamiyatning tarkibiy bo'linmasi Jamiyatning buxgalteriyasi bilan birgalikda ushbu Siyosatda nazarda tutilgan Jamiyat tomonidan dividendlar to'lashni tashkil etish bo'yicha barcha tadbirlarga tayyorgarlik ko'radi, muvofiqlashtiradi va amalga oshiradi.

24. Har qanday aksiyador Jamiyatga aksiyalar bo'yicha dividendlarni hisoblash tartibi, dividendlar miqdorini hisoblash va ularga soliq solish tartibi va to'lov shartlari to'g'risida ma'lumotlarni so'rab murojaat qilish huquqiga ega.

25. Aksiyalar bo'yicha dividend to'lash to'g'risida qaror qabul qilingan aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun tuzilgan Jamiyat aksiyadorlari reestrida ro'yxatdan o'tkazilgan shaxslar aksiyalar bo'yicha dividendlar olish huquqiga egadirlar.

26. Dividendlar aksiyadorlar o'rtasida ularga tegishli aksiyalar soniga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

27. Aksiyador o'z aksiyalariga bo'lgan huquqlarni hisobga olish bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi investitsion vositachisiga va/yoki qimmatli qog'ozlar Markaziy depozitariysiga o'z ma'lumotlaridagi o'zgarishlar to'g'risida zudlik bilan xabar berishi shart. Aksiyador o'z ma'lumotlaridagi o'zgarishlar haqida ma'lumot bermagan hollarda qimmatli qog'ozlar Markaziy depozitariysi va/yoki uning aksiyalariga bo'lgan huquqlarni hisobga olish bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi investitsion vositachisi bu borada aksiyadorga yetkazilgan zarar uchun javob bermaydi.

28. Agar aksiyador dividendlarni o'tkazish uchun bank rekvizitlarini yoki manzilini noto'g'ri ko'rsatgan yoki ushbu ma'lumotlar to'g'risida Jamiyatga xabar bermagan yoki o'z vaqtida xabardor qilmagan bo'lsa, Jamiyat bu borada aksiyadorga yetkazilgan zarar uchun javob bermaydi. Ushbu bandda ko'rsatilgan sabablarga ko'ra aksiyadorning aybi bilan noto'g'ri hisoblangan dividendlar miqdori Jamiyatga qaytarilgandan so'ng, ularni aniqlashtirilgan rekvizitlar bo'yicha aksiyadorga qayta o'tkazish ularni qaytarish va qayta o'tkazish xarajatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

29. Jamiyat aksiyadorlarga tegishli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lanishida soliq agenti bo'ladi va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan qimmatli qog'ozlardan olinadigan daromadlarga hisoblangan dividendlarga solinadigan soliq miqdorini ayirgan holda dividendlarni to'laydi. Standart soliq solinishi qo'llanilmasligi lozim bo'lgan aksiyador Jamiyatga (u jalb qilgan To'lov agentiga) O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etadi.

## **V. E'LON QILINGAN DIVIDENDLAR TO'LOVI UCHUN JAVOBGARLIK**

30. Jamiyat e'lon qilingan dividendlarni to'lashga majbur.

31. Dividendlarni to'lashda hech bir aksiyador to'lov muddatlari bo'yicha afzallikka ega emas.

Jamiyat tomonidan aksiyalar bo'yicha hisoblab yozilgan dividendlarni to'lash dividendlarni olish bo'yicha aksiyadorlar teng huquqlarga ega ekanligi tamoyiliga rioya qilgan holda amalga oshiriladi. Shu bilan birga, agar yirik aksiyadorga dividendlarni to'lash natijasida minoritar aksiyadorlarga dividendlarni o'z vaqtida to'lash ta'minlanmaydigan bo'lsa, Jamiyat yirik aksiyadorga dividend to'lashga haqli emas.

32. Jamiyatning ijroiya organi Jamiyat aksiyadorlariga dividendlarni to'liq va o'z vaqtida to'lash uchun javob beradi. Ijroiya organning harakatlari ustidan nazorat Jamiyatning Kuzatuv kengashi tomonidan amalga oshiriladi.

33. Jamiyat tomonidan dividendlarni to'lash bo'yicha o'z majburiyatlari bajarilmagan holda aksiyadorlar dividendlar to'lanishini sud orqali talab qilishga haqlidirlar.

34. Jamiyatga dividendlar bo'yicha soliqlarni ushlab qolish va o'tkazish bo'yicha yuklatilgan soliq agenti vazifasini bajarmaslik yoki talab darajasida bajarmaslik uchun Jamiyat O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq javob beradi.

## **VI. MA'LUMOTNI OSHKOR QILISH TARTIBI**

35. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilinganda Jamiyat qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organining va Jamiyatning rasmiy veb-saytlarida to'lanadigan dividendlar miqdori to'g'risidagi ma'lumotlarni e'lon qiladi.

36. Jamiyat dividendlar miqdorini ularga solinadigan soliqni hisobga olmagan holda e'lon qiladi.

37. Jamiyat dividendlarni to'lash bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarganligi holati bo'yicha tegishli ma'lumotlarni qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda jiddiy faktlar to'g'risidagi xabarlar shaklida oshkor qiladi.

## **VII. YAKUNIY QOIDALAR**

38. Ushbu Siyosat, shuningdek unga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar Jamiyatning boshqaruv organining tegishli qaror qabul qilingan yig'ilishi bayonnomasi imzolanganidan so'ng o'n kun ichida Jamiyatning Internetdagi korporativ veb-saytida oshkor qilinadi.

39. Ushbu Siyosat, shuningdek unga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar Jamiyat Kuzatuv kengashining qarori bilan tasdiqlanadi.

40. Ushbu Siyosatga o'zgartirish va qo'shimchalar Jamiyat Kuzatuv kengashi, Jamiyat ichki audit xizmati va Jamiyat Ijroiya organi a'zolarining taklifiga ko'ra kiritiladi.

41. Agar ushbu siyosatning ayrim moddalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga va/yoki Jamiyat Ustaviga zid bo'lsa, ushbu moddalar o'z kuchini yo'qotadi va ushbu Siyosatga tegishli o'zgartirishlar kiritilgunga qadar mazkur moddalar bo'yicha tartibga solinadigan masalalarda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari normalariga va/yoki Jamiyat Ustaviga amal qilinishi kerak.

42. Ushbu Siyosat kuchga kirishi bilan 2020-yil 3-avgustdagi O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi" AJning Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan "Dividend siyosati to'g'risidagi Nizomi o'z kuchini yo'qotadi.